

**BIOFIZIKA FANINI O'QITISHDA TALABALARDA  
TAKOMILASHTIRILADIGAN TAYANCH KOMPETENSIYALAR.**

**Xakimov Abdulxakim.**

*Andijon davlat universiteti fizika kafedrası dotsenti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada biofizika fanini o'qitishda talabalarda takomillashtiriladigan tayanch kompetensiyalar, o'qitishning innovatsion usullari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** kreativlik, pedagogik texnologiya, kompetensiya, didaktika, simulatsiya.*

Xozirgi zamonda barcha fanlarni o'qitishda ta'lim sifati va samaradorligiga erishishda yagona yo'l-bu kreativ yondashuv asosida xar bir fanni o'qitishni takomillashtirish xisoblanadi. Kreativlik talabadan ijodkorlikni talab qiladi. Aynan shuning uchun xam talabalarda kreativlik kompetensiyasi shakllangan bo'lishi lozim.

Talabalarda kreativlik kompetensiyasining rivojlanishiga, o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabalar pedagogik munosabatining tavsifi juda katta ta'sir qiladi. Eng yaxshisi darsda, yangi materialni bayon etishda, savol –javobli, munozarali suhbat va muammoli metoddan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday suhbatlarda talabalar orasida o'qituvchi tashkil etgan tortishuv – munozara vujudga kelib, turli qarashlar bir-biri bilan duch keladi. Tortishuvni vujudga keltirish katta mehnat va ustalikni talab etadi, uning samarasi sarf qilingan mehnatni oqlaydi.

Talabalarda kreativlik kompetensiyasini rivojlanirish uchun o'quv konferensiyalari, seminarlar foydali. O'quv seminarlarida – umumiy qiziqish, tortishuv paydo bo'ladigan vaziyatlar jamoa bo'lib ishlashning yaxshi samarasi. Masalan, tovush to'lqinlari yordamida inson organizmiga tashxis qo'yish. Auskultatsiya. Perkusiya mavzusida o'tkazilgan seminarni olaylik. Mustaqil o'quv mashg'ulotlari mazmuniga talabalarning kreativ kompetensiyasini rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashish mumkin. Bunda talabalarga yangi bilim berilmaydi,

ammo shuning hisobiga talabalarga mustaqil bilimlarni yangi sharoitlarda, mustaqil tekshirish bo'yicha qiziqarli ishlar jarayonida rag'batlantirish, ijodiy tavsifidagi tashxis qo'yish usullari taqdim etiladi. Ijodiy simulyasion mulyajlardan foydalanish ham samarali usul .

N.P.Guzik ma'ruza-seminar metodlarini boshqa o'qitish metodlari bilan mohirona birlashtiradi . Uning bu ish tizimi, darslarning quyi-dagi besh tipini o'z ichiga oladi: 1. Ma'ruza - ko'rsatmalar berish darslari. 2. Talabalarning o'quv materialini ustida individual ishlari amalga oshiriladigan omuxtashtirilgan seminar mashg'ulotlari. 3. Avval o'rganilgan mavzular yuzasidan sinovlar tarzida ham o'tkaziladigan bilimlarni umumlashtirish va tizimga solish darslari. 4. Materialni fanlararo umumlashtirish darslari. 5. Amaliy mashg'ulotlar shaklida o'tkaziladigan darslar.

Bunday ish tizimi o'qishning asosiy qismini darsning o'zida o'tkazish imkonini beradi, bu bilan an'anaviy reproduktiv uy vazifalari mustasno qilinadi va ular ijodiy mustaqil ishlar bilan almashtiriladi. Bu tizim, barcha talabalarning auditoriyada mustaqil ishlash jarayonini faollashtiradi va ularning imkon qadar ko'proq aqliy rivojlanishlari uchun yordam beradi. Bunday ish usullari, bolalarning o'qish jarayonida har tomonlama hamkorlik qilishlariga ko'maklashadi. Talabalar o'zlashtiriladigan mavzu-ning o'quv materialini har xil aloqadorlikda va turlicha namoyon qilish maqsadida bir necha marta qayta takrorlashlari uchun ularga alohida vaqt beriladi. Bularning hammasi talabalarning o'quv materialini to'liq va chuqur o'zlashtirishlariga yordam qiladi.

Rasmiy ta'limning birlamchi asosi dars hisoblanadi. Dars, o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan:

- ta'lim-tarbiya beruvchi;
- ta'lim-tarbiya oluvchi;
- dastur va darslik,
- o'quv-uslubiy qo'llanma
- didaktik materiallar;
- pedagogik usul va uslublar,

o'qitishning texnik vositalari.

O'qitish samaradorligiga erishish uchun o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlariga kreativ yondashuvni tashkil etish o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga oshiradi. Demak, bu kompetensiyalar kreativ kompetensiyaning tayanch komponentlari xisoblanib, kreativ yondashuv zahirida yotadi. Kreativ o'zi nima? Creato lotincha so'z bo'lib, yaratuvchanlik, ijodkorlik ma'nolarini anglatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rustamov.M.M. Axborot texnologiyalari darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.// "Elektron ta'lim" – "Elektronnoe obuchenie" – "E-learning" June, 2023, No4, Vol. 2 Navoiy davlat pedagogika instituti.
2. Rustamov.M.M. Enhance students ' knowledge and skills with multimedia tools in an innovative educational environment.// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 10 OCTOBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ 43- page
3. 10.M. Rustamov USE OF MODERN METHODS IN TEACHING "INFORMATION TECHNOLOGY" IN MEDICAL EDUCATION // SAI. 2023. №A7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/use-of-modern-methods-in-teaching-information-technology-in-medical-education> (data obraщeniya: 21.12.2023).